

TARIXCHI OLIM PO'LAT SOLIYEV ILMIY ME'ROSIDA
TURKISTON TARIXIGA OID AYRIM MASALALAR

Nosirov Sherzod O'ktam o'g'li

Buxoro davlat universiteti, o'qituvchi
[sherzodnosirov094@gmail.com.](mailto:sherezodnosirov094@gmail.com)

Annotation: Ushbu maqolada tarixchi olim, o'zbek tarixchilarining ustozasi, birinchi tarix fanlari doktori Po'lat Soliyevning Turkiston tarixiga bag'ishlangan ilmiy qarashlari, shuningdek, Turkiston tarixiga oid miloddan avvalgi davrlar va ilk o'rta asrlar davri tarixiga oid muhim ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlar uning "O'zbekiston ham Tojikiston", "Buxoro tarixi", "O'rta Osiyo tarixi" asarlari orqali tahlil qilingan. Tadqiqot ishi tarixiylik tamoyili, xronologik va qiyosiy tahlil usullariga tayanadi.

Keywords: sug'orma dehqonchilik, o'troq aholi, ko'chmanchilar, o'zbek, chorvachilik, Amudaryo, suv, ariq, g'alla, sug'orish, ekin

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ИСТОРИИ ТУРКСТОНА В НАУЧНОМ
НАСЛЕДИИ УЧЕНОГО-ИСТОРИКА ПОЛАТА СОЛИЕВА

Аннотация: В данной статье представлены научные взгляды Полата Солиева, историка, преподавателя узбекских историков, первого доктора исторических наук, на историю Туркестана, а также важные социально-экономические, культурологические, исторические аспекты истории Туркестана, до н.э. и раннее средневековье.Процессы были проанализированы в его трудах «Узбекистан и Таджикистан», «История Бухары», «История Средней Азии». Исследовательская работа построена на принципе историчности, хронологическом и сравнительном методах анализа.

Ключевые слова: орошающее земледелие, оседлое население, кочевники, узбеки, скотоводство, Амударья, вода, арык, зерно, орошение, урожай

SOME QUESTIONS OF THE HISTORY OF TURKSTON IN THE
SCIENTIFIC HERITAGE OF THE SCIENTIST-HISTORIAN POLAT
SOLIEV

Abstract: In this article, the scientific views of Polat Soliyev, a historian, teacher of Uzbek historians, the first doctor of historical sciences, on the history of Turkestan, as well as important socio-economic, cultural, history of the history of Turkestan, BC and the early Middle Ages. processes were analyzed through his works "Uzbekistan and Tajikistan", "History of Bukhara", "History of Central Asia". The research work is based on the principle of historicity, chronological and comparative analysis methods.

Key words: irrigated agriculture, settled population, nomads, Uzbek, animal husbandry, Amudarya, water, ditch, grain, irrigation, crop

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Tarix fani har doim insoniyatning o‘tmishidagi bor voqeliklarni bizga aslicha ko‘rsatadigan oyna misol bo‘lishi lozim. Zamonlar o‘tib yetib kelgan bugungi davr tarix fanidan har qachongidan ko‘ra ko‘proq aniqlik va xolislikni talab qilmoqda. Bu uchun tarixning uzoq davrlarini o‘zining ilmiy me’rosi orqali bizgacha yetib kelishiga o‘z hissasini qo‘shgan olimlar hayot yo‘li va asarlarini tahlil qilish yangicha qarashlarni ilmiy jamoatchilikka havola qiladi. Ilmiy me’rosi tahlil va muhokamalarga muhtoj tarixchi olim, o‘zbek tarixchilarining ustozি, birinchi tarix fanlari doktori Po‘lat Soliyevning ilmiy me’rosi har qachon muhim manba bo‘lib kelmoqda. Faoliyati davomida Turkiston tarixiga oid ko‘plab qimmatli manbalarni tahlil qilgan, shuningdek, o‘z davri uchun muhim tarixiy ma’lumotlarni yozib qoldirgan olim asarlari Turkiston tarixini o‘rganishda juda qimmatli va birlamchi manbalar qatoridan o‘rin oladi.

Po‘lat Soliyev yaratgan ilmiy maktab esa uning tarix fanidagi mehnatlari samarasini davom ettirgan hisoblanadi. Ibrohim Mo‘minov, Yahyo G‘ulomov, Rashid Nabiev kabi mashhur tarixchi olimlar shu maktabda voyaga yetgan. Atoqli o‘zbek shoiri Hamid Olimjon shu olimdan Samarqand Davlat Universitetida saboq olgan. Professor Po‘lat Soliyev XX asrning dastlabki o‘ttiz yilligi mobaynida Fayzulla

Xo‘jaev, Abdurauf Firrat, Sadreddin Ayniy, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Xodi Fayziy kabi yirik davlat va jamoat arboblari, fan va majaniyat namoyondalari bilan ham fikr, hammaslak bo‘lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)

Turkiston tarixini o‘rganish juda ham ko‘plab ilmiy tahlillar va ilmiy asarlar bilan bog‘liq. Turkistonning ko‘p yillik tarixi, xususan, ahamoniylar, yunon-makedonlar, Kushonlar davri, ilk o‘rta asrlardagi arablarning Movorounnahrga kirib kelgunga qadar bo‘lgan davr tarixi Polat Soliyev asarlari va ularning tahlilida quyidagicha manbaviy tadqiqotlarga bo‘linadi

1. Sovet davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar.
3. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda nashr etilgan tadqiqotlar.
4. Xorijda yaratilgan tadqiqotlar.

TAHLIL VA NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ / ANALYSIS AND RESULTS)

Turkiston qadim zamonlarda juda ko‘plab tarixiy voqealar, evrilishlar, sivilizatsiyalar to‘qnashuvi sodir bo‘lgan tarixiy hudud hisoblanadi. Ushbu hudud tarixi bilan bog‘liq juda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlar ichida tarixchi olim Po‘lat Soliyevning tadqiqotlari muhim hisobanadi. Uning “Buxoro tarixi”(1923), “Mang‘itlar davrida Buxoro o‘lkasi” (1925) “O‘zbekiston ham Tojikiston”(1926), “O‘rta Osiyo tarixi”(1926) asarlari ushbu tadqiqotlarning eng muhimlari hisoblanadi. Olimning tadqiqotlari faqat birlamchi tarixiy manbalar orqali amalga oshirilganligi uning qimmatini oshiradi.

Olim dastlabki ilmiy ijodini Buxoroda boshlaydi. Professor Po‘lat Soliyevning Buxorodagi ijodi asosan O‘rta Osiyodagi eng qiziqarli va kam o‘rganilgan davrlardan biri o‘tmishini o‘rganishga bag‘ishlanib, ana shu davrda uning “Buxoro tarixi” (1923) hamda “Mang‘itlar davrida Buxoro o‘lkasi” (1925) nomli asarlari chop etildi. Bu yerda taqdir unga har qanday tarixchi orzu qilishi mumkin bo‘lgan ulkan sovg‘a in’om etdi – Po‘lat Soliyev Buxoro amirlarining boy kutubxonasi va arxivida birinchilar qatorida ishslash imkoniga ega bo‘ldi. Keyinchalik unga Abdurauf Fitrat va Lutfulla Alyaviy

bilan birgalikda bu arxiv va kutubxonani saralab, ilmiy tadqiqot institutiga topshirish uchun tayyorlash vazifasi yuklatiladi. "Inqilob" jurnalining bir sonida bu qadimiy arxiv va kutubxonadagi saralash ishlari haqida hisobot ham chop etilgan.

Ushbu ma'lumotlar uning asarlari qimmatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Po'lat Soliyevning ilmiy faoliyatidagi muhim hodisalardan biri birinchi umumlashgan asar – "O'zbekiston tarixi"ni yaratish bo'ldi. Bu o'zbek xalqining ko'p asrlik tarixidagi birinchi urinish bo'lib, qadimgi, o'rta asr va zamonaviy tarixchilarning turli xil va ko'plab asarlaridan va boshqa manbalardan olingan ma'lumotlarni jamlash, umumlashtirishni taqozo qilar edi.

O'zKP MK kotibi Akmal Ikromov bo'lajak yirik "O'zbekiston tarixi" asarining qisqacha bayonini ishlab chiqishga rahbarlik qildi. Bu ishga jalb etilgan tarixchilar jamoasi asarning qisqacha bayoni va rejasini tasdiqlagach O'zbekistonning qadimgi davridan to 1917-yil oktyabr to'ntarishigacha bo'lgan tarixini yozish Po'lat Soliyevga topshirildi.

Bundan anglashiladiki, olim O'zbekiston tarixini yaratish ishiga rahbarlik qilar ekan avvalambor, shu zaminda yaratilgan birlamchi manbalar va O'rta Osiyo tarixiga oid chet ellik tadqiqotchilarni ilmiy me'roslarini birinchi navbatda tahlilini olib borganligiga shubha yoq.

Po'lat Soliyevning Turkiston tarixiga oid asarlarida o'lkadagi qadim tarixiy zamonlardan buyon yashab kelgan xalqlarning yashash tarzi, asosiy shug'ullanadigan xo'jalik turlari, ularning joylashgan geografiyasi xususida qimmatli ma'lumotlarni berib o'tadi. Jumladan olim o'zining "O'zbekiston ham Tojikiston" (1926-yil) asarida O'zbekiston hududida yashab kelgan xalqlarning asosiy xo'jalik turlarini quyidagicha tahlil qiladi:

"O'zbekiston xalqining tirikchiligi dehqonchilik bilandir; chorvachilik va boshqa kasb, ikkinchi darajadadir. Dehqonchilik ishi bu o'lkada sug'orishga muvofuqdir. Shuning uchun bu mamlakatda ariq va kanallar bilan yer sug'orish g'oyat eskidir. Amu va Zarafshon bo'yalarida, Farg'onada yiroq asrlardan buyon davom etib keladir. Milodiy asrdan burun Makedonskiyning istilolari vaqtlarida, Zarafshon bo'yalarida dehqonchilik borligi, yerlarning sug'orilganligi rivoyat qilinadi. Ul vaqtarda ham

tog‘lardan chiqqan suvlar bilan xalqning ekin ekkanligi, bog‘lar borligi so‘zlanadi”. Ushbu ma’lumotlarni kitobxonga taqdim qilishda asosli tarzda manbalarga murojaat qilinganligi seziladi. Masalan, olim o‘zining ushbu asarida miloddan avvalgi II asrda O‘rta Osiyoga tashrif buyurgan xitoy elchisi Chjan Syan (aynan elchi ismi keltirilmagan, ammo manbalarda ayni shu davrda O‘rta Osiyoga xitoydan elchi sifatida kelgan shaxs sifatida Chjan Syan nomi keltiriladi)ning Farg‘onada bog‘lar va ekinlar ko‘pligi xususidagi ma’lumotlarini asos sifatida keltiradi.

Bundan tashqari olim O‘rta Osiyo hududidagi har bir geografik hudud, tarixiy viloyatlar xususida ham alohida alohida to‘xtalib o‘tadi:

“Buxoro atrofida ham, dehqonchilik eskidir. Varg‘onze, Varaxchin atroflari sug‘orilganligi, islomiyatdan muqaddam ariq bilan suv chiqazilganligi zikr etiladi. Buxoro atrofidagi Shofirkom arig‘i, Buxoro shahrini ichidan oqadigan Shohrud arig‘i ham islomiyatdan burun ham borligi so‘zlanadir.

Surxandaryo bo‘ylari eskidan beri sug‘orish ishi hamda g‘alla manbayi bo‘luvchiligi bilan mashhurdir. O‘rta asrlardan bu joylarda “Sag‘aniyon” (Chag‘aniyon) nomida mustaqil bir viloyat bo‘lib, idora qilingan. G‘oyat obod bo‘lib, 16 ming qishloq borligini rivoyat qiladilar. Arab yozuvchilaridan Maqduniy: “Yerlar yaxshi sug‘orilg‘anliqdan, Surxon daryosi Amuga kelib yetmay turgan edi” deb yozadi. Surxon daryo bo‘ylari o‘zining munbit (hosildor) va mahsuldarligi bilan eskidan beri mashhur bo‘lib keladir.

Bu yerda bo‘lgan o‘rta asr sayyoohlari buning obodligi to‘g‘risida so‘zlamasdan o‘ta olmaydirlar.

VII asr milodiyda Hindistonga sayohat etgan Xitoy sayyohi “Syuan Tsan” ham Surxondaryo bo‘ylarining munbit(hosildor)ligini, yaxshi sug ‘orilganligini yozadi. Arablar bu viloyatni VIII asr boshlarida oldilar. Bular kelgan vaqtarda ham obodligida davom etgan.

Arab yozuvchilari: “Termiz ulug‘ qal‘a-qo‘rg‘on, nufuzi ko‘p, muhim tomoni bor, bozor, ko‘chalarining ko‘bi tosh bilan ishlangan, Surxondaryodan chiqazilgan ariqlar bilan sug‘orilib, atrofida bo‘g‘lar juda ko‘p edi” deb yozadilar.

“Zarafshonning past taraflarida dehqonchilik bo‘lgani kabi, yuqori tomonlarida, Samarqand viloyatlarida ham dehqonchilik eskidir. Hatto Zarafshon daryosi chiqadigan muzlikdan 25 chaqrim quyida, suvlarni zoye bo‘lishdan saqlaydigan havuzlar ham bor edi. Panjikent yoniga kanallar, ariqlar chiqazilib, yerlar sug‘orilar edi” deb yozadilar.

Samarqand, Buxoro qatorida eskidan beri sug‘orilib kelgan yer-Xorazm o‘lkasidir. Bunda ulug‘ madaniyatning vujudga kelganligin, Nil, Frot bo‘ylarida qanday madaniyat bo‘lgan bo‘lsa, bu yerda ham shunday bir davrning bo‘lganligini da’vo qilguvchilar bo‘lsa ham lekin u davrlar haqida ishonchli manba yo‘q. Xorazmning yiroq madaniyati hozirga qadar mavjuddir. Har holda Xorazm o‘lkasi vaqt bilan ma’mur bo‘lgan, bunisida shubha yo‘q.”

Shuningdek olimning tahlillarida O‘rtta Osiyo xalqlarining qadimgi zamonlardan sug‘orish ishlarida naqadar bilimli va omilkor bo‘lganliklarini, har qachon bo‘lmisin, ushbu sug‘orish ishlarini tashlab qo‘ymaganliklarini ko‘rish mumkin. Hattoki, olim aynan sug‘orish tizimi O‘rtta Osiyo xalqlarining siyosiy boshqaruviga ham kata ta’sir o‘tkazganligini, aholini boshqarish tizimi aynan ushbu sohaga bog‘liq ekanligini yozadi. Bu to‘g‘risini quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin:

“Turkistonning janubiy qismi, Farg‘ona dolinasiga (vodiysi), Amu (Amudaryo)ning pastki oqimi burnidan beri munbit(hosildor) va mahsuldar o‘rinlardir. Bu joylarda o‘tar oqloq(o‘troq joy), ariq qazib suv chiqarish eskidan beri bordir. Shu ma’mur o‘rinlarga hujum etish va uni istilo qilishga intilish burungi zamonlardan beri davom etadir. Ko‘chmanchilarining o‘tar oqloq(o‘troq joy)qa tomon intilishlari, dehqonchiliqqa kirishga harakatlari, o‘troq xalq bilan ko‘chmanchilar orasida urush chiqazsa, ikkinchi tomondan shu suv bo‘ylarida o‘ltiruvchilar orasida yer-suv ustida talash va kurashni tug ‘dirg ‘ondir. Ko‘pincha ariq va suv bo‘ylariga millat hokimi bo‘lg‘onlar o‘ltirg‘onlar boshqalar esa uning oyoq tomonig‘a haydalg‘onlar, yoki butunlay ikkinchi yoqqa surilg‘onlar. Shuning uchun o‘zbek-turkman, o‘zbek-tojik kabi millatlar orasida bir-birlariga dushmanlik payida bo‘lg‘on.”

Ushbu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Orta Osiyo hududida yashagan xalqlarning mavjudligi, rivoji va taraqqiyoti sug‘orish tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan va

ushbu jarayon ularning siyosiy institutlarining shakllanishiga olib kelgan. Tarixchi olim Po'lat Soliyev ushbu tahlillarni O'rta Osiyo tarixi bo'yicha eng qimmatli manbalar orqali bizgacha yetkazgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda, ushbu ma'lumotlardan kelib chiqib O'rta Osiya xalqlarining qadimgi tarixi, ilk o'rta asrlar tarixi xususida olim tomonidan berilgan tarixiy dalillar Zarafshon vodiysi, Surxondaryo vohasi, Xorazm va Farg'ona vodiyisida yashagan xaqlarning xo'jalik turlarining shakllanishi, aholining yashash darajasi, xo'jalik yuritish shakllari, siyosiy institutlarning shakllanishiga xa'jalikning ta'siri xususida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishimizga yordan beradi.

Tarixchi olim Po'lat Soliyev O'rta Osiyo tarixining har bir jabhasini xoh u ijtimoiy bo'lsin, xoh u iqtisodiy bo'lsin, xoh u siyosiy bo'lsin yetarlicha manbalarga tayangan holatda o'rghanishga, tahlil qilishga muvoffaq bo'lgan kam sonli tarixchi olimlardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Анке Фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков. (XVIII-XIX вв), Алмати-2004, стр, 360,
2. Ахророва Х. Биринчи тарих фанлари доктори. // Халқ сўзи.2002 й.18 октябрь.
3. Мухаммаджонов А. Яҳё Ғуломовни хотирлаб.Т.,2001.-Б.11.
4. Германов В.А. Ўзбек тарихчиларининг устози // Турон тарихи. (Тўплам). Т.,1993.-Б.23.
5. Гермонов В.А. Профессор Пулат Салиев и его время. Т.,2002.стр.37.
6. Ражабов Қ. Солиев Бўлат // Ўзбекистон миллий энсиклопедияси.Т.7. Т.: ЎзМЕ нашриёти, 2004. 689-бет
7. Солиев П. Бухоро тарихи (араб имлосида ўзбек тилида). - Тошкент: 1923
8. Солиев Пўлат. Узбекистан и Таджикистан. (Экономико-географический очерк). Т.,1926.

9. Солиев П. Ўрта Осиё тарихи (XI-XV асрлар). 1-қисм (араб имлосида ўзбек тилида). - Тошкент: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1926.
10. Темиров Ф. Пўлат Солиев (тарихий рисола). –Т.: “Абу матбуот-консалт” нашриёти, 2011.
11. XX асрнинг дастлабки ўттиз йиллигига Ўзбекистонда тарих фани. (Тарихшунослик очерклари). 1-жилд . Т.:”Фан”1994.-Б.52.
12. Ғуломов Я.Рахмон Ҳабиб. Улкан тарихшунос // Ўқитувчилар газетаси.1967 й.11 май.
13. Sh Nosirov. Illumination of issues of the history of Turkestan in the works of the historian Polat Soliev. 2022. -B.37-41